ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

XORIJIY MAMLAKATLARDAGI FOND BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI VA BIRJA INDEKSLARI TAVSIFI

Muhammedova Zarina Murodovna, dotsent,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Normurodova Zuhra Orzimurod qizi,
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi talabasi,
Samarqand iqtisodiyot va servis institute
DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29

Annotatsiya: Maqola xorijiy mamlakatlardagi fond birjalari faoliyati, ularning mexanizmlari va birja indekslarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda 2025-2026-yillarga oid xalqaro statistika, indekslar dinamikasi va sektorlar daromadlari tahlil qilinib, fond bozorlarining milliy va global iqtisodiyotga ta’siri aniqlangan. Shu asosda xalqaro fond birjalarini rivojlantirish va investorlarni himoya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: Fond birjasi, birja indeksi, xalqaro moliya bozori, investitsiya, kapital oqimi, iqtisodiy rivojlanish, bozor mexanizmlari, global integratsiya.

Kirish

Xalqaro fond birjalari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, kapital bozorlarini rivojlantirish, investitsiya oqimlarini jalb etish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Fond birjalari nafaqat milliy iqtisodiyotga, balki global moliyaviy tizimga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular orqali kapitalning erkin harakati, qimmatli qog‘ozlar savdosi va investitsiya imkoniyatlari shakllanadi. 2025-2026-yillar statistikasiga ko‘ra, texnologiya sektori va NASDAQ indeksi yuqori daromad sur’atlarini ko‘rsatgan bo‘lsa, Yevropa va Osiyo bozorlarida barqaror o‘sish kuzatilgan, bu esa global fond bozorlari integratsiyasining kuchayishini ko‘rsatadi.

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Mavzuning dolzarbligi shundaki, global iqtisodiy o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va investitsion oqimlarning jadal o‘sishi fonida fond birjalarining samarali ishlashi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, xalqaro fond birjalari faoliyatining mexanizmlari va birja indekslarining o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy mamlakatlardagi fond birjalari faoliyati zamonaviy iqtisodiyotda kapital bozorlarini rivojlantirish, investitsiya oqimlarini jalb etish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda xorijiy va mahalliy tadqiqotchi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy maqola va tezislar yaratilgan bo‘lib, ularda fond birjalari faoliyatining mexanizmlari hamda birja indekslarining iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni keng qamrovda tahlil qilingan.

Xususan, xorijiy tadqiqotchilar Numan Ülkü va Ebru Demirchilar tomonidan yozilgan “Rivojlanayotgan Yevropa mamlakatlarida valyuta va fond bozorlari o‘rtasidagi qo‘shma dinamikalar” nomli ilmiy maqolada valyuta va fond bozorlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik chuqur o‘rganilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, valyuta va fond bozorlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tadqiq etish iqtisodchilar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu jarayon valyuta kursini aniqlash nazariyalarini rivojlantirish, shuningdek, valyuta kurslarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash imkonini beradi [1].

Bundan tashqari, mahalliy tadqiqotchi Po‘latov J.Z. tomonidan yozilgan “Xalqaro fond birjalari rivojlanish xususiyatlari” nomli ilmiy maqolada xalqaro fond birjalari savdo, investitsiya va kapitalni taqsimlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida izohlanadi. Muallifning ta’kidlashicha, mazkur birjalar kapitalning xalqaro miqyosda erkin harakatini ta’minlab, investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi [2].

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Shuningdek, Po‘latov J.Z. ning “O‘zbekistonda fond birjasi faoliyatini rivojlantirish va xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari” nomli maqolasida rivojlangan hamda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning fond bozorlarini rivojlantirish borasida sezilarli tajriba to‘plagani qayd etiladi. Muallif fond bozorlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, institutsional investorlarni jalb etish hamda qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Singapur, Janubiy Koreya, Turkiya va Polsha kabi mamlakatlar tajribasi fond bozorlari orqali iqtisodiyotga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etish mumkinligini ko‘rsatadi [3].

Bundan tashqari, xorijiy tadqiqotchi Vodolazska O.A. ning “Noaniqlik sharoitida fond birjalari samarali faoliyat yuritish mexanizmi” nomli maqolasida zamonaviy fond bozori iqtisodiy, siyosiy va texnologik omillar ta’sirida uzluksiz ravishda o‘zgarib borishi ta’kidlanadi. Muallif fikriga ko‘ra, bunday sharoitda xavflarni kamaytirish uchun samarali boshqaruv va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, investorlar huquqlarini himoya qilish, tartibga solish tizimini rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bozorda barqarorlik va ishonchni oshirishga xizmat qiladi [4].

Yana bir muhim ilmiy yondashuv Hans R. Stoll va Robert E. Whaley tomonidan olib borilgan “Fond indeksi va indeks fyucherslari daromadlari dinamikasi” nomli tadqiqotda bayon etilgan. Mazkur tadqiqotda samarali ishlaydigan bozorlarda fond indekslari va ular asosidagi fyuchers shartnomalari daromadlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lishi zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari fyuchers bozori ko‘pincha fond bozori dinamikasini qisqa muddatda oldindan aks ettirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda fond bozori daromadlaridagi kechikkan o‘zgarishlar ham fyuchers daromadlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [5]

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy tahlil, omilli tahlil, induktsiya va deduktsiya usullaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Fond birjalari faoliyat mexanizmi va birja indekslari zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular kapital harakati, investitsiya muhitining shakllanishi hamda bozor kon’yunkturasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan o‘rganishlar natijasida fond birjalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, savdo jarayonlari hamda birja indekslarining shakllanish va o‘zgarish tendensiyalari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida turli mamlakatlar tajribasi asosida fond bozorlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning amaliy ahamiyati keng qamrovda o‘rganildi.

Xalqaro fond birjalari zamonaviy iqtisodiy va moliyaviy tizimlarning ajralmas elementi sifatida global iqtisodiyotning barqaror o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda iqtisodiy globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida fond birjalari nafaqat alohida mamlakatlar doirasida, balki jahon miqyosida ham o‘zaro integratsiyalashgan, bir-biriga chambarchas bog‘langan va tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan moliyaviy muhitni shakllantirmoqda. Xalqaro fond birjalari – savdo operatsiyalari, investitsiya jarayonlari hamda kapitalni samarali taqsimlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanib, ular xalqaro kapitalning erkin harakatlanishini ta’minlaydi va investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, fond birjalarining rivojlanishi va samarali faoliyati bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, dastlab ular mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy muhiti, moliyaviy tartibga solish tizimi va qonunchilik asoslari bilan belgilanadi, keyingi bosqichlarda esa global iqtisodiy jarayonlar, texnologik taraqqiyot hamda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xalqaro fond birjalari nafaqat milliy iqtisodiyot

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

taraqqiyotiga xizmat qiladi, balki xalqaro savdo, investitsiya oqimlari va global resurslar taqsimotida ham muhim o‘rin egallaydi, ularning rivojlanish jarayonlari esa o‘zgaruvchan global muhit ta’sirida doimiy ravishda takomillashib boradi.


Fond birjasi qimmatli qog‘ozlar bilan savdo amalga oshiriladigan uyushgan bozor sifatida investorlar va emitentlar o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi hamda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Ushbu bozorda aksiyalar va obligatsiyalar kabi moliyaviy instrumentlar erkin ravishda sotiladi va xarid qilinadi, bu esa kapitalning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘ylab oqimini tezlashtiradi [6] .

Fond birjalari faoliyatida narx shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar qiymati asosan talab va taklif asosida belgilanadi. Shu bilan birga, aksiyalar kotirovkasi kompaniyaning moliyaviy natijalari, dividend siyosati hamda bozor ishtirokchilari ishonchiga bog‘liq holda doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Bu jarayon fond bozori orqali real iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni tezkor aks ettirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy fond birjalari faoliyati maxsus tartibga soluvchi organlar tomonidan nazorat qilinadi hamda savdo jarayonlari ko‘pincha elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa bozorda shaffoflikni oshirish, operatsiyalarni tezlashtirish va investorlar uchun qulay hamda xavfsiz investitsiya muhitini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)



1-rasm. “2025-2026 yillarda xalqaro fond bozorlari statistik ko‘rsatkichlari” [7]


Mazkur statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda global fond bozorlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lib, ayniqsa yirik fond indekslari yuqori daromadlilik darajasi bilan ajralib turadi. Xususan, S&P 500 indeksining 30,8 foizlik o‘sishi AQSH fond bozorining yuqori investitsion jozibadorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Xitoyning Shanghai va Shenzhen indekslaridagi mos ravishda 18,4% va 30,0% o‘sish ko‘rsatkichlari Osiyo fond bozorlarining ham jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Yevropa fond bozori o‘sishining 9,7% darajada bo‘lishi esa mintaqada nisbatan barqaror, ammo mo‘tadil o‘sish sur’atlari kuzatilayotganini anglatadi.

Shuningdek, 2026-yil uchun berilgan prognozlar global iqtisodiyot va fond bozorlari rivojida ijobiy kutilmalar mavjudligini ifodalaydi. Global iqtisodiy o‘sishning 2,8% darajada prognoz qilinishi hamda Yaponiya (13%) va Hindiston (9%) fond bozorlarida kutilayotgan o‘sish ko‘rsatkichlari kelgusida investitsion faollikning yanada oshishini anglatadi. Bu esa fond birjalari faoliyat mexanizmlarining takomillashuvi, texnologik rivojlanish va xalqaro kapital harakatining kengayishi bilan

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

bevosita bog‘liq bo‘lib, global moliya bozorlarining o‘zaro integratsiyasi kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.



2-rasm. “2025-yilda xalqaro fond bozorlari statistik ko‘rsatkichlari” [8]

Ushbu statistik ma’lumotlar global fond bozorlaridagi sektor va indekslarning 2025 yildagi rivojlanish sur’atlarini aks ettiradi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, texnologiya sektori aksiyalari 22.70% bilan eng yuqori o‘sish sur’atini ko‘rsatib, investitsiya jozibadorligini sezilarli darajada oshirgan. NASDAQ indeksi 35.20% ga o‘sishi esa AQSH texnologik kompaniyalarining fond bozoridagi kuchli pozitsiyasini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, FTSE 100 (8.10%), DAX 10.4% va CAC (9.3%) kabi Yevropa indekslarining o‘sish sur’atlari mintaqa bozorlarining barqaror, lekin nisbatan mo‘tadil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, MSCI World indeksi 15.60% va MSCI Emerging Markets indeksi 12.80% global va rivojlanayotgan bozorlardagi integratsiya va o‘sish dinamikasini ifodalaydi. Energetika 11.90% va moliya 10.20% sektori aksiyalari ham barqaror daromad sur’atlarini ko‘rsatib, global iqtisodiyotdagi turli sektorlarga investorlar qiziqishining o‘zgaruvchanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, global IPO bozorining 6.50% o‘sishi yangi kompaniyalar fond bozoriga kirishini aks ettirib,

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilayotganini bildiradi. Bu ma’lumotlar fond birjalari faoliyatining nafaqat milliy, balki xalqaro moliyaviy integratsiyaga bog‘liqligini ham ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro fond birjalari zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, kapital oqimini tartibga solish, investitsiya muhitini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. 2025–2026 yillarga oid tahlillar fond indekslari va sektorlar daromadlarining turlicha o‘sish sur’atlarini aniqladi: texnologiya sektori va NASDAQ indeksi yuqori daromad ko‘rsatkichlari bilan ajralib turgan bo‘lsa, Yevropa bozorlarida barqaror va mo‘tadil o‘sish kuzatilgan. MSCI World va Emerging Markets indekslari global va rivojlanayotgan bozorlar o‘rtasidagi integratsiyaning kuchayishini, shuningdek, investorlar uchun diversifikatsiya va risklarni boshqarish imkoniyatlarining oshishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ham tasdiqladiki, xalqaro fond bozorlari o‘zgaruvchan global muhitga moslashish, texnologik yangiliklarni joriy etish va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish orqali yanada samarali faoliyat yuritishi mumkin. Bu esa nafaqat milliy, balki global iqtisodiyotda fond bozorlarining barqarorligini oshiradi, investitsion oqimlarni rag‘batlantiradi va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Shu asosda tadqiqot natijalariga ko‘ra ilgari surilgan tavsiyalar xalqaro fond birjalari faoliyatini takomillashtirish va investitsion muhitni yanada qulay qilishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari surildi:

Birinxhidan, xorijiy va mahalliy fond birjalari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida texnologik yangiliklar va elektron savdo platformalarini keng joriy etish tavsiya qilinadi.

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Ikkinchidan, investorlarni himoya qilish va bozor shaffofligini oshirish maqsadida qonunchilik va moliyaviy tartibga solish bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

Uchinchidan, milliy va xalqaro fond bozorlarining integratsiyasini kuchaytirish orqali kapital oqimini samarali boshqarish va investitsion imkoniyatlarni kengaytirish tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Numan Ülkü va Ebru Demirchi “Joint dynamics of foreign exchange and stock markets in emerging Europe” https://doi.org/10.1016/j.intfin.2011.07.005

[2] Po‘latov.J.Z “Xalqaro fond birjalari rivojlanish xususiyatlari”

[3] Po‘latov.J.Z “O‘zbekistonda fond birjasi faoliyatini rivojlantirish va xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari” https://doi.org/10.5281/zenodo.17152985

[4] Vodolazska.O.A. “The mechanism of effective functioning of stock exchanges under the conditions of uncertainty” https://dspace.dsau.dp.ua/handle/123456789/12236

[5] Hans.R.Stoll va Robert.E.Whaley “The Dynamics of Stock Index and Stock Index Futures Returns” https://doi.org/10.2307/2331010

[6] https://jet.bank.uz/article/fond-birjasi-73

[7] “2025-2026 yillarda xalqaro fond bozorlari statistik ko‘rsatkichlari”. https://www.spglobal.com/market-intelligence/en/newsinsights/articles/2026/1/global-stocks-set-to-rally-again-in-2026-though-us-market-may-regain-lead-97094219 , https://focus.world-exchanges.org/issue/march-2025\

[8] 2025-yilda xalqaro fond bozorlari statistik ko‘rsatkichlari https://focus.world-exchanges.org/issue/october-2025/market-statistics , https://www.bestbrokers.com/stock-trading/stock-trading-market-statistics/

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 **Vol. 1 No. 1 (2026)**

[9] https://scholar.google.com/

DOI: https://doi.org/10.66493/t9fb5p29
© Sharq universiteti, 2026